

xizmat qilyapti. Ushbu ezgu harakat natijasida bugungi kungacha koʻplab xotin-qizlarga turli koʻrinishdagi moddiy koʻmak berilib, ularning muammolari hal etildi.

Xususan, oʻtgan yili boquvchisini yoʻqotgan, ijtimoiy yordamga muhtoj boʻlgan 224 ming 397 nafar ayolga 225,1 mlrd. soʻm miqdorida moddiy yordam koʻrsatildi. Shuningdek, 3 ming 841 nafar xotin-qizning uy-joylari taʼmirlanib, uy-joyga muhtoj boʻlgan 8 ming 656 nafarining sharoitini yaxshilashga 11,7 mlrd. soʻm ijara kompensatsiyasi toʻlab berildi, 1 ming 481 nafarini arzon uy-joylar bilan taʼminlashga 42,9 mlrd. soʻm sarflandi.

Umuman olganda, birgina oʻtgan yilning oʻzida ushbu daftarga kiritilgan 993 ming 386 nafar xotin-qizning muammosi hal etilgan, shu maqsadga barcha manbalar hisobidan jami 1,2 trln. soʻmdan ortiq mablagʻ sarflangan.

Albatta, mana shunday yordamlar evaziga qaddini tiklagan, oilasini moddiy jihatdan taʼminlayotgan, farzandlarini bekamu koʻst tarbiyalab, voyaga yetkazayotgan ayollarning yuzidagi quvonchni,

xulosaga kelish notoʻgʻri. Aslida, **shunday bir ogʻir vaziyatga tushib qolgan, umidsiz, mushqatpar ayol arz-dodini eshitadigan, dardiga malham boʻladigan zamon kelganidan bu.**

Afsuski, shu kungacha Oʻzbekiston qonunchiligida oiladagi zoʻravonlik boʻyicha javobgarlikka tortuvchi alohida norma boʻlmagan. 2023-yil 11-aprelda “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilindi. Unga koʻra tegishli meʼyoriy-huquqiy hujjatlarga “oilaviy (maishiy) zoʻravonlik”, “taʼqib etish”, “shahvoniy shilqimlik” kabi tushunchalar kiritilib, ushbu huquqbuzarliklar uchun maʼmuriy, jinoiy javobgarlik belgilandi.

Jinsiy zoʻravonlik, jumladan, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zoʻravonlik sodir etganlarga qonunchilikda koʻzda tutilgan yengilliklar berilmasligi, jazoni oʻtashdan muddatlarning ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrogi bilan almashtirish, yarashganligi munosabati

Prezidentimiz ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish boʻyicha ustuvor vazifalarga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishida keyingi yillarda mamlakatimizda oila va xotin-qizlar huquqlarining kafolatlari, ayollarni zoʻravonlik va tazyiqdan himoya qilish tizimi ancha kuchaytirilganini, lekin bunday holatlar hali ham uchrab turganini taʼkidladi. Ayniqsa, zoʻravonlikka uchragan xotin-qizlar reabilitatsiya bilan yetarlicha qamrab olinmagani qayd etildi.

Ayollar va bolalarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoyalash boʻyicha mahalla darajasida alohida tizim yaratish, bunday holatga uchragan ayollar reestri tuzilib, ularga mahallada tezkor kompleks xizmat koʻrsatish tizimi joriy qilinishi belgilandi. Shuningdek, har bir tuman shifoxonasida zoʻravonlikka uchraganlarga tibbiy va ruhiy yordam koʻrsatish uchun tunu kun ishlaydigan xonalar tashkil etilishi maʼlum qilindi. Albatta, bu borada “mahalla yetilligi” tarkibidagi mana shu ishga bevosita masʼul boʻlgan mutasaddilarning yaqindan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, **xotin-qizlarning**

taʼlim, fan, sanʼat, gender tengligi, umuman, barqaror rivojlanish sohalarida oʻzaro hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlarni belgilab, amalga oshirib kelmoqdamiz. Ushbu nufuzli xalqaro tuzilmalarning bir qator tadbirlari yurtimizda yuqori saviyada oʻtkazilayotgani mamlakatimizda parlamentarizmi rivojlantirish, inson huquqlarini taʼminlash hamda jamiyatni demokratlashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar, ularning amaliy natijalari jahon hamjamiyati tomonidan munosib eʼtirof etilayotganiga yorqin misol boʻla oladi.

Maʼlumki, har qanday mamlakatda gender tenglik qanchalik taʼminlanganligi xotin-qizlarning davlat boshqaruvining eng yuqori pogʻonalarida egallagan oʻrni bilan ham belgilanadi. Nega deganda, ularning mamlakat taqdiri bilan bogʻliq muhim qarorlar qabul qilinadigan davlat idoralarda yetarlicha vakillikka ega boʻlishi xotin-qizlarning manfaatlari shunchalik samarali ilgari surilishi va mazkur hujjatlarda amalda oʻz aksini topishida katta oʻrin tutadi. Parlamentlararo Ittifoq maʼlumotiga koʻra, unga aʼzo 180 davlat ichida Oʻzbekiston mazkur koʻrsatkich boʻyicha 45-oʻrinni egallagan. Jahon bankining “Ayollar, huquq va biznes” indeksida mamlakatimiz oʻrinlari yaxshilandi. Oʻzbekiston “xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik sohasida muhim islohotlarni amalga oshirgan” 27 ta davlat sirasiga kirdi.

Shu oʻrinda yana bir muhim masala, yaʼni jamiyatimiz mustahkamligi, davlatimiz barqarorligining muhim asoslaridan biri — oilaning tarbiya va taʼlim borasidagi salohiyatini oshirish, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, maʼnaviy-axloqiy muhitni yaxshilash bugungi kunda har qachongidan koʻra dolzarb boʻlib turibdi.

Bugun xalqaro maydonda raqobat tobora kuchayib, dunyoda oʻz taʼsirini saqlab qolishga jin-jahdi bilan intilayotgan davlatlar oʻrtasidagi ziddiyatlar keskin tus olmoqda, axborot makonida turli gʻoyaviy, maʼnaviy tahdidlar avj olib bormoqda. Shunday ogʻir bir vaziyatda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyat va anʼanalarimizni asrab-avaylash, ularni farzandlarimizning ongu shuuriga chuqur singdirish xalq, millat sifatida birligimizni taʼminlash, oʻzligimizni saqlab qolishning eng muhim omillaridan biridir.

Davlatimiz rahbari Maʼnaviyat va maʼrifat kengashining kengaytirilgan yigʻilishida **“Biz bugungi keskin sharoitda gʻoyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy oʻylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorugʻ dunyoda “oʻzbek”, “oʻzbekistonlik”, “Oʻzbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan boʻlsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish boʻyicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech boʻladi”**, deya barchamizni, ayniqsa, ziyolilarni yana bir bor ogohlikka chaqirdi.

Prezidentimiz tomonidan kuyunchaklik bilan aytilgan bu gaplar, avvalo biz, onalarga tegishli,

desak, toʻgʻri boʻladi. Oilada onaning oʻrni, uning farzandlar tarbiyasiga koʻrsatadigan beqiyos taʼsiri haqida Sharq mutafakkirlari koʻp va xoʻp fikrlar bildirishgan. Oiladagi muhit, farzandlar xulqi va odobi, uning otaga, atrofdagi kishilarga va jamiyatga munosabati aynan onaning dunyoqarashi, bilimi va maʼnaviyati bilan bogʻliq holda shakllanishini ular alohida taʼkidlashgan. **“Oqila ayol — oilaning asosi, bolalarini oʻz zamonasi uchungina emas, kelajak uchun ham tarbiyalaydi”** deydi allomalarimiz.

Shu maqsadda jamiyatning asosiy tayanchi boʻlgan oilada maʼnaviy muhitni yaxshilash, farzand tarbiyasidagi masʼuliyat, milliy qadriyatlarni singdirish va shu kabi tashabbuslarni keng yoyish maqsadida obroʻ-eʼtiborli, katta hayotiy tajribaga ega opa-singillarimizdan iborat jamoatchilik tuzilmalari tashkil etildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasi qarori bilan **“Oqila ayollar” harakati** faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Ular joylarda yangi maʼnaviy makon yaratish, oilalarni mustahkamlash, maʼrifatli jamiyatni qurishda ziyoli onalar ishtirokini taʼminlash, xotin-qizlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish, ularga qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqchil tilda tushuntirish borasida targʻibot-tashviqot ishlarini olib bormoqda.

Biroq davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, asosan, chetdan uyushtirilayotgan, baʼzan hatto mamlakatning oʻzida ham ahyon-ahyonda boʻy koʻrsatib qolayotgan milliyilgimiz, davlatchilgimiz hamda maʼnaviyatimizga qaratilgan tahdidlarni, Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalarni bugungi axborot ochiqligi sharoitida jilovlash mushkul. Ularga qarshi faqat maʼrifat bilan, yuksak maʼnaviyatimiz bilan izchil kurashishimiz, munosib javob qaytarishimiz zarur. Vatanimiz mustaqilligi, millatimiz taqdiri uchun kurash — abadiy kurash ekanini har birimiz chuqur anglashimiz va unga hamisha shay boʻlmogʻimiz kerak boʻladi.

Shu maʼnoda, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari boʻyicha respublika komissiyasi, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti, “Olima ayollar” jamiyati, “Oqila ayollar” harakati, Oʻzbekiston yetakchi ayollari muloqoti kabi qator jamoatchilik tuzilmalari Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi bilan bu boradagi saʼy-harakatlarimizni birlashtirishimiz, oʻzaro muvofiqlashgan tarzda samarali yoʻlga qoʻyishimiz, maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni ilmiy asosda, yangicha uslub va mazmunda, tizimli tashkil etishimiz zarur.

Biz qayerda, qanday kasbda ishlamaylik, tabiatan ayolga, onaga berilgan “avlodlar tarbiyachisi”, degan ulugʻ maqomni unutmashimiz kerak. Prezidentimiz ilgari surgan “Oʻzbekistonning har bir farzandi xalqimizning birdamligi, mamlakat yaxlitligi uchun kurashib yashashni oʻz hayotining maʼnosi deb bilmogʻi kerak! Biz bir boʻlsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!” degan oliy tushunchani farzandlarimiz ongiga singdirish, ularda mana shunday yuksak vatanparvarlik tuygʻularini tarbiyalash hamda hayotining mazmuniga aylantirish, biz — onalarning muqaddas burchimizdir.

Mana, betakror oʻlkamizga yana yangilanish va yasharish fasli — bahor kirib keldi. Tabiat qaytadan uygʻonib, atrof olamni yashillikka burkab, kishiga oʻzgacha bir soflik, shijoat hamda hayotdan zavqlanib yashash tuygʻusini baxsh etayotgan bir pallada xotin-qizlarimizga alohida hurmat-ehtirom koʻrsatish, ularning bayramini nishonlash oʻziga xos ramziy maʼnoga ega. Zero, Sharqda Ona, Ayol azaldan insonni dunyoga keltiradigan, avlodlar davomiyligini taʼminlaydigan muqaddas zot sifatida ulugʻlab kelingan!

XALQ MANFAATLARI USTUVOR

Ishsiz xotin-qizlar masalasiga alohida yondashiladi

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida davlat dasturining ijtimoiy yoʻnaltirilgani, ehtiyojmand qatlam vakillarining huquq va manfaatlarini taʼminlash boʻyicha tizimli choralar koʻrilayotgani eʼtirof etildi.

Hisobotda keltirilishicha, “ayollar daftari” 1 mln. 779 xotin-qiz roʻyxatga kiritilib, 993 ming 368 nafariga yordam koʻrsatilgan. Davlat hisobidan kasb-hunarga oʻqish imkoniyatlari yaratilib, koʻlami 2 baravar oshirilgan. Respublika boʻyicha ogʻir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan 78 mingga yaqin ishsiz xotin-qizlarning manzilli roʻyxati shakllantirilib, ularni oʻqitish va bandligini taʼminlash choralari koʻrilgan.

Fraksiya aʼzolari sogʻliqni saqlash sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilganini qayd etdilar. Hisobotni koʻrib chiqish jarayonida onalik va bolalikni muhofaza qilish, ehtiyojmand aholini uy-joy bilan taʼminlash, davlat dasturiga kiritilgan, ammo ayrim sabablarga koʻra amalga oshmay qolgan masalalar yuzasidan savollar bilan murojaat qilishdi.

Atvofliha muhokama va savol-javoblardan keyin hisobot qoʻllab-quvvatlandi.

Fraksiya yigʻilishida, shuningdek, davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga qoʻshimchalar kiritish haqidagi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Keyingi yillarda davlat mulkini tadbirkorlik subyektlari va boshqa shaxslarga ijaraga berishda qonuniyligni taʼminlash yuzasidan tizimli choralar koʻrilayotganiga qaramay, amalda davlat mulkidan samarali foydalanilmaslik, uni ijaraga berish tartiblarini buzilishi bilan bogʻliq qonunbuzarlik holatlari soni ham ortib bormoqda. Bu esa davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilik buzilishiga olib kelmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan davlat mulkini ijaraga berish tartibiga rioya qilmaganlik, boʻsh turgan davlat mulkidan samarali foydalanish choralarini

koʻrmaganlik, davlat mulkini ijaraga olgan tadbirkorlik subyektlari va boshqa shaxslarning huquqlarini buzganlik uchun maʼmuriy javobgarlik belgilanmoqda.

Fraksiya aʼzolari qonun loyihasi davlat mulkidan samarali foydalanishni taʼminlashga, ijaraga oluvchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari ishonchli himoyalinishiga xizmat qilishini taʼkidladilar. Davlat mulkini ijaraga berish tartibiga rioya qilmasklik bilan bogʻliq yuzaga kelayotgan muammolar boʻyicha qonunchilikni yanada takomillashtirish haqida ham fikr-mulohazalar bildirildi va qoʻllab-quvvatlandi.

Ekologik holatni yaxshilash masʼuliyati

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida davlat dasturining oʻtgan yil yakuni boʻyicha bajarilishi yuzasidan hisobotni muhokama qilish chogʻida bir qator muhim masalalarga alohida eʼtibor qaratildi.

Taʼkidlaganidek, hisobot davrida atmosfera havosi ifloslanishning oldini olish maqsadida atrof-muhitga taʼsiri yuqori boʻlgan 113 ta xoʻjalik yurituvchi subyektdagi chang-gʻa tozalash uskunalari toʻliq modernizatsiya qilingan.

Shahar va tumanlarda ekologik holatni barqarorlashtirish hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish maqsadida respublika boʻylab jami 219,1 mln. tup manzarali va mevali daraxt, buta koʻchati hamda qalamchalar ekilgan. Bunzarli natijasida hisobot davrida respublikaning yashillik darajasi 15,4 foizga yetkazilgan. Atrof-muhitga taʼsiri sezilarli boʻlgan ayrim sanoat korxonalarida “yashil belbogʻ”larni barpo etish maqsadida 1 mln. tup koʻchat ekilgan.

Orol dengizining qurigan tubi va Orolboʻyi hududlarida qum koʻchishi hamda choʻllanish, qurgʻochilik, chang-qum boʻronlarining koʻtarilishini bartaraf etish maqsadida 200,7 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” barpo etilgan.

Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz taʼminlash hamda “yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini barcha sohaga faol joriy etish maqsadida ham bir qator ishlar qilingani yigʻilishda alohida qayd etildi.

Fraksiya aʼzolari iqtisodiyot tarmoqlaridan havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini qisqartirish, maishiy chiqindilarni yigʻish va ularni qayta ishlash, respublika hududida ekologik holatni barqarorlashtirish hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish, mintaqada yuzaga kelayotgan suv taqchilligini yumshatish maqsadida suv resurslarini boshqarishni tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish boʻyicha vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, bu yoʻnalishda nazoratni kuchaytirish borasida qator taklif va tavsiyalar berishdi.

Fraksiyalar yigʻilishlarida davlat dasturi ijrosi toʻgʻrisidagi Hukumat hisoboti hamda qizgʻin muhokama qilingan qonun loyihalari deputatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi. Shuningdek, kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

«Xalq soʻzi».



REKLAMA

“UZ-DONGJU PAINT COMPANY” MCHI QKning ijroiiga organi, gaʼni korxona direktori va uning oʻrinbosari lavozimiga tanlov oʻtkazilmoqda

Tanlovda qatnashish istagini bildirgan nomzodlar quyida keltirilgan hujjatlar bilan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Andijon viloyati hududiy boshqarmasiga, tanlov komissiyasiga murojaat etishi mumkin:

- nomzod maʼlumotnomasi (obyektivkasi);
- Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim muassasasining yoki xorijda oliy taʼlim olganligi haqida bakalavr diplomi;
- Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim muassasasining yoki xorijda oliy taʼlim olganligi haqida magistr diplomi;
- ilmiy unvoni (fan nomzodi, fan boʻyicha falsafa doktori, fan doktori) va ilmiy darajasini (dotsent, professor) tasdiqlovchi hujjat;
- qoʻshimcha oliy maʼlumot olganligi (ikkinchi, uchinchi) haqidagi diplom;
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlariga koʻra lavozimga tayinlangani boʻyicha hujjat;
- davlat tashkilotlarining maʼmuriy-boshqaruv lavozimlarida ish tajribasi;
- tegishli vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ijobiy tavsiyanomalar (mavjud boʻlgan hujjatdagi);
- xorijiy mamlakatlarda rahbarlik lavozimlarida (direktor, direktor muovini, menejer, supervayzer) ish tajribasi yoki xorijiy yurisdiksiyadagi masalalarni hal qilishning amaliy tajribasi; ijobiy tavsiyanomalar (mavjud boʻlsa);
- tanlov eʼlon qilinayotgan sohadagi rahbarlik tajribasi (boshqaruv raisi/direktor, boshqaruv raisi/direktor oʻrinbosari

yoki rahbarlik lavozimiga tenglashtirilgan lavozimlar — bosh muhandis, bosh mexanik, bosh iqtisodchi, boʻlim/sex boshligʻi va boshqalar)ni tasdiqlovchi hujjat;

- xoʻjalik jamiyatlarining rahbarlik lavozimlarida ishlash tajribasini (uzoq yillardan buyon ishlaganligi) asoslantiruvchi hujjat;

- xoʻjalik jamiyatlari kuzatuv kengashi aʼzosi sifatida ish tajribasi;

- davlat nazorat organi xodimi, sudya, Qonunchilik palatasi deputati yoki Senat aʼzosi sifatida bir yildan kam boʻlmagan ish tajribasi;

- xorijiy tillardan (rus, ingliz, koreys, nemis, fransuz tillari) birini mukammal bilishi, qolganlaridan ikkitasi yoki hammasini bilishi;

- amal qilish muddatiga ega korporativ boshqaruvchi malaka attestati (mavjud boʻlgan taqdirda);

- qimmatli qogʻozlar bozori mutaxassisi, auditor, sugʻurtalovchi, baholovchi, sud boshqaruvchisi malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi amal qilish muddatiga ega hujjatlar (mavjud boʻlgan taqdirda);

- kompyuter bilimdonlik — “MS Office”, “MS Excel” — ishonchli foydalanish;

Arizalarni qabul qilish vaqti soat 9:00 dan 18:00 gacha. Murojaat uchun telefonlar: 74-223-25-06, 74-223-21-72. Andijon shahri, Navoiy shohkoʻchasi, 126-uy, Kengashlar uyi binosi, 4-qavat, 402-xona.

Iftixor

Mahmud TOIR,
O'zbekiston
xalq shoiri.XORAZM
HAYRATI

Xushxabar xush yoqar bori ellarga,
Shodlik shaloladek kirar dillarga.
She'r, qo'shiq yarashar aysang tillarga,
Xorazm hayratini so'ylagim keldi,
Qoraqalpoq qadri kuylagim keldi.

Kutsang, ko'kdan tushmas aslo chalpak ham,
Yo'q yerdan to'qilmas hatto ertak ham...
Kerak ulug' ishini ko'ra bilmak ham,
Xalqim, o'tmishingni o'ylagim keldi,
Va lek buguningni kuylagim keldi.

Erki yo'q, baxtiga zor el eding kecha,
Achingan, kulganlar edilar necha,
Do'pping tizga qo'yib, fikrla picha,
Shoningni jonimga boylagim keldi,
Aslida oringni kuylagim keldi.

Ko'zni katta ochib tegrangga boqqin,
Qush bo'lib yurtimda qanoting qoqqin,
Ey, g'anim, insofing chirog'in yoqqin,
Gumondor kaslarni iylagim keldi,
Kuylashim shartligin kuylagim keldi.

Qaylardadir urush... qirg'in, qatag'on,
Ming yillik ko'priklar bo'lmoqda vayron,
Ne tong, bizning yurtida do'stlik hukmron,
Ko'zimga quyoshni joylagim keldi,
Tinchlik shukronasin kuylagim keldi.

Bir ko'priklar mingtadan bittasi asli,
Keldi Xorazmning chin gullash fasli...
"Lazgi"ga o'ynasa yarashar nasli,
Shu ko'priklar to'yida to'ylagim keldi,
Ham qoraqalpoqcha kuylagim keldi.

Boysundan Mo'ymoqqa qadar ko'rsinlar,
Ko'zlari tinsalar, tiyrak yursinlar,
Jayhun shamolidan shifo so'rsinlar,
Millatim mardlarin siylagim keldi,
Davlatim qudratin kuylagim keldi.

Sarbonki, ellarni birlashtirsam, der,
Dillarga dillarni birlashtirsam, der,
Yo'llarga yo'llarni birlashtirsam, der,
Men-da o'zimni sal qiynagim keldi,
Yurakni yondirib kuylagim keldi.

Ko'ksin ko'priklar qilib tutib turganda,
Olam shul ko'priklardan o'tib turganda,
O'zbekning qadriga yetib turganda,
O'zbekiston bo'lib bo'ylagim keldi,
Sadoqat sozida kuylagim keldi!

AMUDARYONING "OLTIN BELBOG'I"

Qoraqalpoq va Xorazm ahlining asriy orzularini ro'yobga chiqardi



Munosabat

Xalqimizda azal-azaldan yo'l qurish, ko'priklar solish, odamlarning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilish savobli amallardan sanaladi. Shu kunlarda inson qadr-qimmatini yuksaltirish, turmushini, hayot darajasini yaxshilashga qaratilgan yangi O'zbekistonning yana bir muhtasham inshooti qurib bitkazildi. Bu Amudaryo ustiga qurilgan zamonaviy ko'priklar bo'lib, uning bunyod etilishi qoraqalpoq va Xorazm ahlini behad quvontirdi. Chunki bu ko'priklar nafaqat temir yo'l va avtomobil yo'lini yaqinlashtirdi, balki ikki xalqning azaliy qadrdonlik rishtalarini yanada mustahkamladi. Ayni chog'da ko'priklar mustahkamligi hudud hayot darajasini yaxshilaydi. Yanada quvonarlisi esa, bu majmuaning ochilish marosimida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ishtirok etgani bo'ldi...

Darhaqiqat, xorazmliklar va qoraqalpoqlar azal-azaldan bir tanu bir jon, do'stu qardosh bo'lib dunyo xalqlariga namuna bo'lib kelayotir. Prezidentimiz g'oyasi bilan Amudaryo ustida qurilgan, Xorazm viloyati va Qoraqalpoqiston Respublikasini bog'laydigan zamonaviy ko'priklar nafaqat xalqlarimizni yanada yaqinlashtirdi, balki mahsulotlarni eksport qilish masofasini qisqartirdi, tannarx arzonlashishiga, tadbirkorlarning o'zaroqarilishlarini bartaraf etishga zamin yaratdi. Shu jihatdan, Amudaryoning har ikki qirg'og'ida yashovchi yurtdoshlarimizning asriy orzusini ro'yobga chiqardi.

Prezidentimizning voha faollari bilan dildan suhbat, belgilab bergan vazifalar hududning ijtimoiy-iqtisodiy sohasini rivojlantirish orqali xalqimizning yashash sharoitini yuqori pog'onalariga oshirishiga xizmat qiladi. Ma'lumki, davlatimiz tomonidan qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi uch yilda hududlarda birgina quyosh va shamol generatsiya quvvatlarini ishga tushirish uchun 2 mlrd. dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb etildi.

Shu o'rinda Urganch davlat universitetida bu borada bajarilgan ishlarga diqqat qaratiladi. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan iqtisodiyot tarmoqlari, aholi va ijtimoiy



soha obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish borasidagi aniq vazifalar ijrosi Urganch davlat universitetida ham tizimli amalga oshirildi.

Xususan, 2023-yilda Urganch davlat universitetida jami 2200 kVt-soat quyosh panellari o'rnatilib, muqobil energiya manbalari joriy etish ishlari muddatidan avval yakunlandi. Quvonarlisi, ob-havodagi o'zgarishlar yoki boshqa turli sabablar tufayli elektr energiyasi tizimida nomutanosiblik bo'lgan holatlarda ham universitet hech qachon elektr energiyasidan uzilib qolmaydi. O'rnatilgan 60 ta yoritqich bir yilda 90 ming kVt-soat elektr energiyani tejaydi. 30 dona suv isitish qurilmasi orqali yiliga 6 ming kVt-soat elektr energiya tejaladigan bo'ldi. Shuningdek, universitetdagi isitish qozonlarini ko'mir yoqilg'isida ishlashga moslash bo'yicha ham yomushlar olib borildi. 15 ta ko'mir qozoni o'rnatildi va 225 tonna ko'mir zaxira qilib qo'yildi. Bularning barchasi budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga amalga oshirildi.

Davlat rahbarining har bir viloyatga tashrifida, albatta, o'sha hududning o'ziga xosliklari e'tiborga olingan holda tashkiliy tadbirlar belgilanadi. Ana shu ma'noda, Xorazm viloyatida ishlab chiqarish, xususan, yirik sanoat obyektlariga zarurat borligiga jiddiy e'tibor qaratilayotgani barchamizga mamnuniyat bag'ishladi. Prezidentimiz ushbu tadbirlarga 1,1 mlrd. dollar va 10 trln. so'm yo'naltirilishini qayd etdi. Bu esa viloyatda ko'plab sohalarda rivojlanish, o'sish bo'lishini anglatadi.

U m u m a n , bu loyiha ishga tushsa, Xorazm viloyatida elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlari 30 foizga oshadi.

Mazkur kompaniya bilan universitetimiz o'rtasida yaxshi hamkorlik o'rnatilgan. Joriy yil boshida Fransiyaning "Vitalia" kompaniyasi va Urganch davlat universiteti o'rtasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, kadrlarga ingliz va fransuz tillarini o'rgatish bo'yicha hamkorlik qilishga kelishildi. Kompaniya vakillari Urganch davlat universitetiga tashrifi chog'ida universitet rahbariyati, Fizika kafedrasini professor o'qituvchilari bilan uchrashdi. Shuningdek, universitet hududida tashkil etilgan "Yarimo'tkazgichli quyosh elementlari va lazer fizikasi" ilmiy markazida 100 mln. dollarlik loyihalarni ishga tushirish hamda xorazmlik tadbirkorlar uchun qator imtiyozlar belgilandi. Sayyohlarga bir yil davomida cheklovsiz Xorazm viloyatiga kirish uchun "O'zbekiston — mening ikkinchi uyim" viza tizimi joriy qilinishi ta'kidlandi. Urganch shahrida "Lazgi" va "Avesto" muzeylarini ochish topshirildi. Davlatimiz rahbari har qarich yerni, har tomchi suvni yuqori hosilga aylantirish yo'lidan borishimiz shartligini, buni xorazmliklar hammadan ko'ra yaxshi tushunishiga e'tibor qaratdi. Aholi, ayniqsa, yoshlarga yerlarni avksion orqali bo'lib berish amaliyoti Xorazmda ham davom ettirilishi lozimligini bildirdi.

Mamlakat rahbarining Xorazmga alohida e'tibori va mehrini hamisha his qilib kelmoqdamiz. Ishonamizki, Prezidentimizning bu galgi tashrifi ham viloyatimiz tarixida yangi sahifalarni ochadi.

Bahrom ABDULLAYEV,
Urganch davlat universiteti
rektori, professor.

Kitob javoningizga

Mehrnoma

Ma'naviyatning tub ildizi tarixiy xotira bilan bog'liq. Kishi tarixni yaxshi bilsa, o'zligini, kimlarining avlodi ekanini anglab tursa, u hayotda kamroq xato qiladi, boshqalar uni o'z tanlagan yo'lidan qaytarolmaydi.



Oilaning uzluksiz tarixini tiklash jarayonida xotira kitoblarning o'rni beqiyos. Shu ma'noda, mohir qalamkash, yoshlarning ardoqli ustozlari, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Ikrom O'tbosarov xotirasiga bag'ishlangan "Mehrnoma"

kitobi avlodlar tarixini bir-biriga bog'laydigan oltin ko'priklar bo'ladi. Negaki, undan hamkasblari, shogirdlari va oila a'zolarining samimiy xotiralarini o'rta olingan.

Ko'plab tarixiy voqealarning mohiyatini tushunishda ham memuar-essalik asarlarning o'rni bebaho. Shu ma'noda,

kitobda keltirilgan xotiralar silsilasida yurtimizda ro'y bergan yangilanishlar aks etadi, ayni paytda o'quvchi fidoyi jurnalistning yetuk shaxs, mohir qalamkash bo'lib yetishish yo'lini ham

anglab boradi. Bu esdaliklar mustaqil hayotga qadam qo'yib, o'z yo'lini tanlayotgan yoki yaxshi mutaxassis bo'lishga intilayotgan yoshlar uchun ham qimmatli. Zero, kechagi kunning saboqlaridan yetarli xulosa chiqarmay, kamchiliklarning ildizini anglab, ularni bartaraf etish yo'llarini kashf qilmay, biror muvaffaqiyatga erishish mushkul.

Umr bo'yi hayoti kitob varaqlariga lavhalar bitish bilan o'tgan inson haqidagi ushbu asar o'quvchiga manzur kelishiga ishonamiz.

Qavs bayozi

Qavs — kuzning oxirgi oyi. Bu paytda daraxtlar barglari sarg'ayib, yerga to'kiladi. Anhorlarda suvlar tiniqlashadi.

Ona tabiatga qo'shilib inson ham sokin tortib qoladi, fikrlari teranlashadi. Beixtiyor hayot haqida mushohada yurita boshlaydi.

Shoir va yozuvchi Farmon Toshevning "Qavs

bayozi" kitobidan ana shunday kayfiyat, tuyg'ular sarchashmasi bo'lgan she'rilar, g'azallar, taxmis, masnaviyalar, fardlar, tuyuqlar joy olgan. Ularni o'qib, muallif ijodini qavsiga o'xshatasiz.

Uning yillar davomida olgan hayotiy tajribalaridan xulosa chiqarib, fikr-mulohazalarini misralarga joylaganiga guvoh bo'lasiz.

Ushbu to'plam ko'nglingiz va kutubxonangizdan munosib joy egallashiga umid qilamiz.

"Xalq so'zi".

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qoq'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkash uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI

quyidagi lavozimlarga kafedralar bo'yicha tanlov e'lon qiladi:

Terapiya fakulteti	Menejment, ijtimoiy va birlamchi sog'liqni saqlash fakulteti
Nevrologiya kafedrasini professori; Ichki kasalliklar kafedrasini dotsenti.	Tibbiyot texnikasi va innovatsion texnologiyalar bo'yicha injener-texnik xodimlar kafedrasini mudiri; Jamoa salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish kafedrasini dotsenti, katta o'qituvchisi;
Xirurgiya fakulteti	Neyroxirurgiya kafedrasini mudiri; Oilaviy tibbiyot kafedrasini dotsenti, assistenti; Patanatomiya va sud tibbiy ekspertizasi kafedrasini mudiri.
Otorinolaringologiya kafedrasini assistenti; 1-Ultratovush diagnostikasi kafedrasini mudiri; Stomatologiya, bolalar stomatologiyasi va ortodontiyasi kafedrasini dotsenti, assistenti; Tibbiy radiologiya kafedrasini assistenti, stajer o'qituvchi; Onkologiya kafedrasini professori, assistenti; Xirurgiya va bolalar xirurgiyasi kafedrasini mudiri; Xirurgik stomatologiya kafedrasini assistenti; Urologiya va andrologiya kafedrasini mudiri; Shoshilinch tibbiy yordam kafedrasini dotsenti, assistenti; Nefrologiya, gemodializ va buyrak transplantatsiyasi kafedrasini assistenti; Traumatologiya va ortopediya kafedrasini dotsenti, assistenti.	Pediatrya fakulteti
	Pediatrya kafedrasini mudiri, dotsenti; 2-Akusherlik va ginekologiya kafedrasini mudiri; Bolalar asab kasalliklari kafedrasini mudiri, assistenti.
	Tibbiy profilaktika fakulteti
	Epidemiologiya kafedrasini assistenti; O'tirilgan immunitet tanqisligi sindromi — infeksiya muammolari kursini stajyor o'qituvchisi; Klinik laborator diagnostika kafedrasini assistenti; Neyroreabilitatsiya kafedrasini mudiri, professori.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy.
Tel.: 71-267-60-74.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

MANZILIMIZ:

100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir Z. Xudoysukurov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.50 Topshirildi — 00.50

1 2 3 4 5 6